

**OLIY TALIMDA TALABALAR MUSTAQIL DUNYOQARASHINI  
KENGAYTIRISHDA MILLIY TARBIYA VA ZAMONAVIY TA'LIMNING  
UYG'UNLIGI**  
Sharof Rashidov  
nomidagi SamDU

Umirova Navruza Mamasoliyevna  
Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lism fakulteti  
fakultetlararo pedagogika kafedrasi doktaranti

**Annatasiya:**

Ushbu maqola oliy ta'linda ta'lum olayotgan talabalarda zamonaviy ta'lum olish bilan birga milliy tarbiyaning uyg'unligini ta'lum olish jarayoniga ijobiy ta'siri ochib berilgan.

**Annotation:**

This article reveals the positive effect of the harmony of national education along with modern education on the educational process of students studying in higher education.

**Аннотация:**

В данной статье раскрывается положительное влияние гармонии отечественного образования наряду с современным образованием на образовательный процесс студентов, обучающихся в высшей школе.

**Kalit so'zlar:** mustaqil fikrlash va dunyoqarash, ilg'or pedagogik tajribalar, xorijiy ta'lum, o'quv dasturlar, adabiyotlar, tajriba, o'qitish, oliy ta'lum, hamkorlik, innovassiya.

**Keywords:** independent thinking and outlook, advanced pedagogical experiences, foreign education, educational programs, literature, experience, teaching, higher education, cooperation, innovation.

**Ключевые слова:** самостоятельное мышление и мировоззрение, передовой педагогический опыт, зарубежное образование, образовательные программы, литература, опыт, преподавание, высшее образование, сотрудничество, инновации.

Bugungi global hayotda jamiyatning barcha sohalari kabi ta'lum sohasida ham yuqori darajadagi reytingga kirishga bo'lgan intilishlar kuchaymoqda. Bunga birligina misol O'zbekiston Respublikasidagi barcha oliy ta'lum muassasalari ta'lum sifati va o'qitish tizimini yangicha tizimga almashtirish yoki hamkorlikda qo'shma ta'lum dasturlari faoliyatini yo'lga

qo'yish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Bundan asosiy maqsad talaba yoshlarni teran fikrlaydigan o'z orzu-maqsadlarida intiladigan qolaversa xorijiy tengdoshlari bilan bir auditoriyalarda ta'lim olishi nazarda tutilgan.

Moziyga bir nazar tashlaydigan bo'lsak har davrning o'z yangi go'yalar kashfiyotlari va bu g'oyalar va kashfiyotlar jamiyat rivojiga qanchalik tasir ko'rsatganligini tarixiy manbalardab bilib olishimiz mumkin, chunki har bir kashfiyot va ijtimoiy o'zgarishlar avval ta'limda nazariy g'oyalarda pishitilib keyin amalda hayotda tadbiq qilingan. Ta'lim tizimida oliy ta'lim inson hayotida juda ahamiyatli hisoblanadi, bunga ko'pgina misollarni keltirishimiz mumkin. Chunki inson bo'lib jamiyatda shakllanishida, yetuk kadr bo'lib yetishishida, do'stlar orttirishida va ilmiy va mustaqil dunyoqarashini kengayishida asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Har qanday sharoitda va vaziyatda talabalar zamonaviy bilimlarni egallashi va milliy o'zligini yo'qotmaslikni taqozo qiladi.

Ta'lim jarayoni har doim zamonaviylikni yangi pedagogik innovation g'oyalarni, texnologiyalarni va metodlarni amalda qo'llanilishi talab qilib kelgan, chunki ta'lim berish bir xillikka tayanib qolsa ta'lim oluvchilarda ilm olishga bo'lagan intilish susayishiga ta'lim beruvchilarning o'qitishda ijodkorligini bir joyda qotib qolishiga sabab bo'ladi, natijada ta'lim sifati va natijalari tushib ketadi. Shunday ekan ta'limda har doim har bir davrda yangiliklar yangi o'qitish tizimlari adabiyotlar, usullar vositalarga ehtiyoj bo'lib kelgan,

Talabalarda zamonaviy ta'lim berish ularni zamon bilan hamnafas bo'lishi so'ngi ta'limdagи yangiliklar bilan xabardor bo'lib borish kelajakda ish faoliyatini olib boradigan tashkilotlarda ham qaysidir manoda yangilik olib kirishiga sabab bo'ladi.Ta'limda zamonaviylik bu yangi kashfiyotlar va innovasiyalarni jamiyatimizdagи barcha sohalarda yangi usulda faoliyat olib borishni taqozo qiladi.Ya'ni boshqacha qilib aytgabda ta'lim berishni yangicha bir usulini talabalar uchun qiziqarli bo'lgan usuldan foydalanib talabalar ongiga singdirishdir. Bu ta'lim oluvchilar uchun ularni ilmiy fikrlash doirasini kengayishiga va samarali natijalar berishiga xizmat qiladigan usullardir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviylik yangi texnik vositalar bilan ta'lim berish va talabalarni bilimini nazorat qilish uchun yangi o'qitish tizimlarini ko'rsatish mumkin. Bunda talaba bilimi onlayn usulda baholanadi va nazoratga qilinadi.Bu ta'lim sifatiga va shaffofligiga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Oliy ta'limda eng muhim masalalardan biri milliy tarbiyani zamonaviylik bilan almashtirib qo'ymasdan ularni yaxlit bir uyg'unlikda ta'lim olishga va tarbiyalanishga qaratish lozim. Ta'lim olayotgan talabalar milliy urf-odatlarni, milliy madaniyatni, ta'lim jarayonida o'zaro hurmatni saqlashi, andishalilik bilan munosabatga bo'lishi, manaviy yetuklikni shakllanishi ta'lim bilan birgalikda samarali ekanligini singdirish lozim. Bilimli talabada tarbiyaning bo'lmasligi ta'limning katta xatosi bo'lib qoladi va uning qanchalik bilimli bo'lishi unga foya keltirmaydi. Shuning uchun ta'lim olishda talabalarga dastlab milliy tarbiyani singdirilsagina zamonaviy ta'lim berish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim olish zamonaviy innovasiyalar asosida tashkilm etilishi talabalarda zamonaviy bilimlar va innovasiyalar ta'lim orqali berilishi talabalar ongida har qanday tushunchalar zamonaviy vositalar bilan yetkaziladi va singdiriladi, shunday ekan o'z-o'zidan oladigan bilimi va ma'lumotlari so'ngi yangiliklar asosida beriladi.Talabalar zamonaviy tushunchalarni yangi deb emas ta'limning asosi deb tushunadi va qabul qiladi. Oliy ta'limgacha har bir yetuk avlod kerakli milliy tarbiyani o'zida oilasi va mакtab vositasida qabul qilgan bulsa, uning tarbiyasida hech qanday yod g'oyalarni o'zining turmush tarzida ishlatmaydi va foydalanmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 bet
2. Ergashov Doniyor Mahammad o'g'li.Yoshlar ongida manaviyatni shakllantirish.Ta'lim fidoyilari.2022.40-43bet.
3. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: Ma'naviyat, 2007. - 240 b.